

Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura (PhD), mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga o‘qishga talabgorlar uchun talab etiladigan hujjatlar ro‘yxati:

- ✓ Qisqacha biografik ma’lumot.
 - ✓ Elektron tizim orqali integratsiya qilinmagan taqdirda - oliy ta’lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki klinik ordinaturani tugatganligi (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma’lumot (mutaxassislik dasturlari bo‘yicha) to‘g‘risida diplom nusxasi*.
 - ✓ Nashr etilgan ilmiy ishlar nusxalari (kamida 1 ta maqola va 2 ta tezis).
 - ✓ Ish joyidan tavsifnoma (Mustaqil izlanuvchilar uchun)
- Xorijiy til bo‘yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat (Stajyor-tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun majburiy emas).

Doktorantura (DSc), mustaqil izlanuvchilik (DSc)ga o‘qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

Qisqacha biografik ma’lumotnoma.

Oliy ma’lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo‘lganligi to‘g‘risidagi diplom nusxasi*.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy ma’ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi (mustaqil izlanuvchilar (DSc) uchun majburiy emas).

Nashr etilgan ilmiy ishlar nusxalari (kamida 3 ta maqola va 2 ta tezis).

Ish joyidan tavsifnoma (Mustaqil izlanuvchilar uchun).

Xorijiy til bo‘yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat nusxasi (Mustaqil izlanuvchilar uchun majburiy emas).

Barcha hujjatlar pdf shaklida tayyorlanib Oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvofiqlashtiruvchi Yagona elektron tizimi (<http://daraja.ilmiy.uz>) orqali ro‘yxatdan o‘tgan holda yuboriladi.

**- xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni rasmiy tan olinganlik guvohnomasi bilan birga yuklanadi.*